

TURKIY XALQLAR ADABIYOTIDA “NAVRO‘Z”NING BADIY TALQINI

Dilbar XALILOVA*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Navro‘zning etimologik, etnologik va genetik xususiyatlari, sharq allomalarining asarlarida botiniy va zohiriy jihatdan qay darajada tavsiflanganligi tahliliy yoritilgan. Tarixiy manbalarda, sharq xalqlari adabiyotida, jumladan, Mahmud Qoshg‘ariy, Rabg‘uziy, Beruniy, Umar Hayyom, Alisher Navoiy singari ulug‘ allomalarimizning asarlarida Navro‘z etimologiyasi va etnologiyasi bilan bog‘liq ko‘plab ma‘lumotlar keltirilgan. Xalqimizning sevimli bu bayrami to‘g‘risida yaratilgan miflar, afsonalar, rivoyatlar, hikoyatlar, hikmatlarda Navro‘z ta‘rifi va tasnifi aks etgan termalar, dostonlardagi epik o‘rin o‘rganila boshlandi. Tarixiy yozma manbalardagi, badiiy adabiyotdagi “Navro‘z” bayrami va u bilan bog‘liq ko‘plab udumlarimiz, urf-odatlarimiz hamda bir necha ming yillik Navro‘z tarixini ilmiy jihatdan o‘rganish milliy qadriyatlar, an‘analarni tiklash, barqarorlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Folklorda ham turkiy xalqlar badiiy tafakkuri, aqliy, axloqiy, diniy, estetik va ruhiy qarashlari, asrlardan asrlarga o‘tib kelayotgan milliy an‘analari, qadriyatlari saqlangan bo‘lib, bular ko‘proq va mukammalroq tarzda baxshichilik san‘atida aks etgan. Umuman olganda, xalq baxshilari repertuaridagi dostonlar va termalarda ham yoshi ming yillarga borib taqaladigan “Navro‘z” bayrami hamda u bilan bog‘liq tadbirlar, udumlar, marosimlar madhini yaxlit tarzda tadqiq etish va shu orqali baxshilar ijodida an‘ananing davom etishi hamda har bir baxshining an‘anaga qo‘shgan hissasi, badiiy mahorati va badihago‘ylik qobiliyatini baholash alohida tadqiq talabdir.

Kalit So‘zlar: *Navro‘z, Udumlar, Marosimlar, Badiiy Tafakkur.*

Artistic Interpretation of "Navruz" in the Literature of Turkic Peoples

Abstract: This article analytically examines the etymological, ethnological, and genetic characteristics of Navruz, as well as the extent to which it is described in the works of Eastern scholars from both a hidden and apparent perspective. Historical sources and the literature of Eastern peoples, including the works of our great scholars such as Kashgari, Rabghuzi, Beruni, Khayyam, Navoi contain a wealth of information related to the etymology and ethnology of Navruz. The myths, legends, stories, narratives, and wisdom created about this beloved holiday of our people, as well as the descriptions and classifications of Navruz found in folk songs and the epic passages in dastans, have begun to be studied. Folklore also preserves the artistic thinking, intellectual, moral, religious, aesthetic, and spiritual views of the Turkic peoples, as well as national traditions and values passed down from century to century, which are more fully and completely reflected in the art of bakhshi. In general, a comprehensive study of the celebration of "Navruz" and related events, customs, rituals, which date back thousands of years, in the dastans and folk songs in the repertoire of folk bakhshi, as well as an assessment of each bakhshi's contribution to the tradition, artistic skill, and improvisational abilities, requires separate investigation.

Keywords: *Navruz, Customs, Ceremonies, Artistic Thought.*

Kirish

Mazkur tadqiqotning asosiy mavzusi – Turkiy xalqlar adabiyotida "Navro‘z"ning badiiy talqini. Navro‘z bayrami – bu nafaqat turli xalqlar orasida keng tarqalgan madaniy an‘ana, balki uning adabiyotdagi aks-sadosi ham juda katta ahamiyatga ega. Navro‘zning xalq hayotidagi o‘rni, tarixiy, madaniy va falsafiy mazmuni adabiy asarlarda qanday talqin qilinishi, uning turkiy xalqlarning badiiy tafakkuridagi o‘rni – bu tadqiqotning asosiy yo‘nalishlari bo‘ladi.

Tadqiqotning mazmuni va ahamiyati. Tadqiqot, avvalo, "Navro‘zni" turkiy xalqlar adabiyotida qanday badiiy talqin etilishi, uning adabiy qadriyatlar bilan bog‘lanishini o‘rganishni maqsad qiladi. Navro‘zni o‘rganish nafaqat xalqning qadimiy an‘analari, balki uning adabiy ijodida qanday rang-barang shakllarda aks etishi, turli zamon va makonlardagi talqinlari orqali xalq madaniyatining bir qismi sifatida qadrli ekanligini tushunishga yordam beradi. Tadqiqotning ahamiyati shundaki, Navro‘zni faqat bayram sifatida emas, balki turkiy xalqlarning badiiy tafakkuri va dunyoqarashi nuqtai nazaridan tahlil qilish muhim bir ilmiy masala hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadlari:

* PhD. Dots., Turon Universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, Qarshi, O‘zbekiston, e-mail: dilbarxalilova71@gmail.com

1. Turkiy xalqlarning adabiyotida Navro'z bayramining badiiy talqinini o'rganish.
2. Navro'zning turkiy xalqlarning adabiy asarlarida qanday aks etishini tahlil qilish.
3. Navro'zning xalq hayotiga, milliy qadriyatlarga va turkiy xalqlarning madaniy an'analari bilan bog'lanishini o'rganish.
4. Navro'zning badiiy tafsiridagi falsafiy, tarixiy va ijtimoiy jihatlarni aniqlash.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda asosan kontekstual, qiyosiy va intertekstual tahlil metodlari qo'llanildi. Bu metodlar yordamida Navro'zning turli adabiy asarlardagi tasvirlari, ramziy ifodalar, shuningdek, turli davrlarning badiiy tafakkuridagi o'zgarishlarni chuqur o'rganish imkoniyati yaratiladi. Chunonchi, tarixiy va madaniy kontekstda Navro'zni tahlil qilishda an'anaviy yondashuvlar va zamonaviy ilmiy nuqtai nazarlar ham hisobga olinadi.

Adabiyotlar tahlili. Sharq xalqlarining sevimli bayrami to'g'risida yaratilgan miflar, afsonalar, rivoyatlar, hikoyatlar, hikmatlarda Navro'z ta'rif va tasnifi aks etgan termalar, dostonlardagi epik o'rin o'rganila boshlandi. Bu jihatdan atoqli folklorshunoslar akademik T.Mirzayev (Mirzayev va boshqalar, 1991; Mirzayev, 2010; Mirzayev va boshqalar, 2010), professorlar M.Jo'rayev (1994; 2008), Sh.Turdimovlarning (2016) tadqiqotlari alohida ahamiyatga egadir.

Atoqli folklorshunos Jo'rayevning *Navro'z bayrami* (2008) monografiyasi bayramning kelib chiqish tarixi, shakllanish bosqichlari, adabiy-tarixiy manbalardagi talqinlari, yilboshi tarkibiga kiruvchi udum, rasm-rusumlar, sayllar, Navro'z folklori to'g'risida yaxlit ma'lumotlarni jamlagani bilan ajralib turadi. Akademik folklorshunos T.Mirzayev shogirdi M.Jo'rayevning Navro'z bayrami haqidagi ilmiy asarlariga shunday baho beradi: "Chindan ham Navro'z bayrami va uning folklorini doimiy ravishda o'rganish atoqli olim ilmiy faoliyatning yana bir qirrasini tashkil etadi (Mirzayev, 2010: 6)".

Natijalar va muhokama. Sharq xalqlari adabiyotida – Navro'z uzoq moziydan bugungi zamonlarga qadar yetib kelgan eng aziz va muqaddas ma'naviy qadriyatlardan biri sifatida talqin qilinadi. Uning mazmun-mohiyati qadimgi ajdodlarimizning ibtidoiy va mifologik tasavvurlaridan tortib, bugungi zamondoshlarimizning o'ta ilg'or qarashlarigacha bo'lgan ulkan ma'naviyat olamini o'zida mujassam etadi, insoniyat sivilizatsiyasining tarixiy taraqqiyotidan darak beradi.

Navro'z madhi yana tillarga tushdi. Bu haqda shoirlarimiz yuzlab she'rlar bitdi, san'atkorlarimiz ko'plab qo'shiqlar yaratdi. Tarixiy yozma manbalardagi, badiiy adabiyotdagi "Navro'z" bayrami va u bilan bog'liq ko'plab udumlarimiz, urf-odatlarimiz hamda bir necha ming yillik Navro'z tarixi haqida ilmiy maqolalar, risolalar va monografiyalar yaratildi.

Jamiyatning ijtimoiy taraqqiyotdagi, hayotdagi o'zgarishlar, yangilanishlar bilan xalq og'zaki badiiy ijodi ham rivojlanib, boyib borgan. Uning yuksalishiga xalqning professional ijodkorlari munosib hissa qo'shgan. Istiqlof tufayli baxshilarning erkin ijod qilishi, milliy qadriyatlarimiz, bayramlarimizning, xususan, qadimiy Navro'z bayramining tiklanishi, Navro'z bayramini dostonlar va termalarda madh etishga imkon yaratdi. Chori baxshi kuylagan *Amir Temurning tug'ilishi va bolaligi* dostonida, Qahhor baxshidan yozib olingan *Yangi kun, Navro'z muborak, Navro'zim, Sumalak*, Shoqul baxshi Mirzayev yaratgan *Navro'z keldi, Bahor kelganda*, Shodmon baxshi Xo'jamberdiyevning *Navro'zim, Navro'z*, Qora baxshi Umirovning *Navro'zim*, Abdimurod baxshi Rahimovning *Navro'z*, Rasul baxshi Umirovning *Yuzlarida Navro'z* termalarida Navro'z qadimiy bayram va u bilan bog'liq urf-odatlar, rasm-rusumlar ko'tarinki ruhda olqishlanadi.

Baxshilar repertuaridagi termalarda aks etgan Navro'z folklorini ikki turga ajratib o'rganish maqsadga muvofiqdir.

1. Navro'z bayrami haqida termalar
2. Navro'z bayrami bilan bog'liq tadbirlar va udumlar haqidagi termalar.

3. Navro'z bayramiga aloqador termalarni taxminan quyidagi tematik jihatidan o'rganish lozimligini bizdagi termalar ko'rsatmoqda.

4. Navro'z tarixi bilan bog'liq termalar
5. Navro'zni madh etuvchi termalar
6. Navro'z bilan xalqni, tinglovchilarni qutlovchi termalar.
7. Navro'z folklorining katta bir qismini quyidagi termalar tashkil etadi:
8. Sumalak haqidagi termalar
9. Ohuva termalari
10. Navro'z urf-odatlariga oid termalar.
11. Navro'zdagi xalq o'yinlarini ta'rif-tavsif etuvchi termalar.

Ammo ularning har biriga xos xususiyatlarni, o'xshash va farqli tomonlarni asoslash, shu mavzudagi termalarda an'anaviylik va soxtakorlikni aniqlash, termalar qatidagi kichik folkloriy janrlar maqollar, qo'shiqlarning o'rniga baho berish, Navro'z folkloriga ham yozma adabiyotning ta'sirini o'rganish, bir Navro'z folklori doirasida baxshilar mahoratini tadqiq etish hamon dolzarb vazifa bo'lib turibdi.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar asosan professional ijodkor bo'lmagan xalq vakillaridan yozib olinganini, og'zaki manbalarni asosiy qismi afsonalar, rivoyatlar, hikoyatlar ekanini nazarda tutgan holda ushbu ishimizda xalq baxshilari kuylab kelayotgan dostonlardagi Navro'z bayrami va bu bayram bilan bog'liq udumlar, odatlar, qadriyatlar, sayllar, marosimlar, yoritilgan o'rinlarni hamda baxshilar ijro etib kelayotgan termalarni tahlil qilishni lozim topdik. Ayni vaqtda Navro'z folkloriga xos termalardan namunalar ham keltirdikki, bu istiqbol davrida hozirgi baxshilar ulug' bayramimizni qanday madh etayotgani va har bir badihago'y baxshi mahoratini tadqiq etishga imkon beradi.

Ko'pgina tarixiy manbalarda ham halinchak uchishning paydo bo'lishi yoki sumalak taomini pishirish Navro'z bayramining yuzaga kelishi bilan teng ekanligi aytiladi. Navro'zning bayram sifatida nishonlanishi va halinchak uchishning paydo bo'lishi haqida buyuk alloma Beruniy shunday yozadi: "Jamshid o'ziga arava yasab olgach, o'sha kuni aravaga chiqib oldi, jinlar va shaytonlar uni havoga ko'tarib, bir kunda Dunbovand tog'idan Bobilga olib bordi. Odamlar bu ajoyib voqeani ko'rgach, o'sha kunni hayit qildilar va Jamshidning aravada uchishiga taqlid qilib, arg'imchoqlarda uchdilar" (Ergashev, 2020: 51). Ana shundan buyon arg'imchoqlarda uchib, xursandchilik qilish go'daklardan keksalarga zavq beradigan mashg'ulotga aylandi, "Navro'z" bayramining sevimli o'yinlaridan biri bo'lib qoldi.

Har bir baxshi Navro'zni madh etib, uning qadimiyligini, ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan, ko'ngillarga quvonch bag'ishlaydigan xursandchilik ayyomi ekanligini e'tirof etadi, o'zlari eshitgan rivoyat, hikoyat mazmunidan ham foydalanadi. Bu Shodmon baxshi Xo'jamberdiyev ijro etgan "Navro'zim" termasida shunday aks etadi:

*Ota-bobolardan qolgan merosim
 Seni kuylaganda jaranglar sozim,
 Sog'inib yashayman, men seni rostim
 Yurtimga xush kelding, go'zal, Navro'zim!
 Doshqozonda qaynar shirin sumalak
 Atrofida esa yettita malak.
 Yurtimga qilaman eng ulug' tilak
 Men seni kutaman, go'zal Navro'zim! (Ergashev, 2020: 51)*

Keltirilgan parchadagi sumalak tayyorlash Navro'zdagi doimiy taomlardan biri ekagligini anglatasa, "Atrofida esa yettita malak" misrasi xalq ongida shakllanib, quyma holga kelib qolgan sumalakni pishirishda "Ko'zga ko'rinmas yetti malak ishtirok etadi" degan tushunchaning ifodasidir.

“Navro‘z shunchaki bir bayram emas. U millatning tarixi, falsafasi, badiiyati va san‘ati, madaniyati, mifologik va dunyoviy qarashini, ilmiy tafakkur tarzini o‘zida mujassam etgan qomusiy bir ayyomdir” (Mirzayev, 2010: 6). Shu boisdan ham, tarixiy manbalarda, mumtoz adabiyotdan to hozirgi davr adabiyoti ijodkorlari asarlarida xalqimizning milliy ayyomi Navro‘z talqini ko‘plab uchraydi. Tarixiy manbalarning xabar berishiga qaraganda Navro‘z qadim zamonlarda, ya‘ni miloddan avvalgi I-ming yillikda ham nishonlangan. Hozirgi kunda bu bayram o‘zining obyektiv tarixiy zamini bo‘lganligi uchun ham yashovchan va qadrlidir. Navro‘z haqida ilk ma‘lumotlar “Avesto”da, shuningdek, Sharq yozma manbalarida – Firdavsiyning (934-1025) “Shohnoma” dostonida, Abu Rayhon Beruniyning (973-1048) “Kitobash tavhim” (Tushuntirish), “Qonuni ma’sudiy”, “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, Umar Xayyomning “Navro‘znoma”, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Nosir Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy”, Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” singari asarlarida bayon etilganligi, aniq ilmiy xulosalar bilan birga bugungi davr adabiyotida ham o‘z ifodasini topib kelmoqda.

Navro‘z haqidagi ulug‘ ajdodlarimizdan bizga meros sifatida qoldirilgan rivoyatlar judayam muhim bir haqiqatdan, ya‘ni uning Sharq kishilarining g‘oyatda ezgu xohish-istaklari, o‘ylari hamda hayotiy, amaliy tajribalaridan tug‘ilganligidan dalolat beradi. Abulqosim Firdavsiyning sohir qalami tufayli dunyoga kelgan “Shohnoma”sida esa yangi yilning (Navro‘z) paydo bo‘lishi shoh Jamshid nomi bilan bog‘lanadi. Jamshid odamlarga yaxshilik qilish maqsadida ularni kasbga o‘rgatadi, temirni eritib qurol yasatadi, ip yigirtirib, kiyim to‘qitadi, hammom, uy, saroylar bunyod qildiradi, tabiblik sirlarini ochadi, kema yasatadi, bog‘ barpo qildiradi. Nihoyat, Jamshidning ishlari gurkirab, meva bergan kunda o‘ziga taxt yasatib, unda osongina ko‘tariladi. Bu “Shohnoma”da quyidagicha ta’riflanadi:

*Taxt ko‘kda charx urar misoli quyosh,
Farmondor o‘tirar, unda irg‘ab bosh.
Barcha jam, odamlar qarar taxtiga,
Jahon qoyil bo‘lib shukuh-baxtiga.
Jamshidga sochishar oltinu gavhar,
Shu kunni yangi yil – bayram deyishar.
Yil boshi Xurmuza edi farvardin,
Dilda na g‘am qoldi, na adovat-kin.
Ulug‘lar shodlik-la bazm qurdilar,
Yuzlarin cholg‘uga, moyga burdilar* (Firdavsiy, 2012: 12).

Jamshid zamonida o‘lim va qahatchilik bo‘lmaganligi, odamlar podshohdan roziligi uchun xalk va zodagonlar o‘sha kunni “Navro‘z”deb atadilar,-deb ta’rif beriladi. O‘sha zamonlarda shamsiy yilning birinchi oyi «Farvardin» deb atalgan, bu 21 martdan – 21 aprelgacha bo‘lgan kunlarga to‘g‘ri keladi.

Firdavsiyning “Shohnoma” asarida Navro‘zning paydo bo‘lishi shoh Jamshid nomi bilan bog‘lanishini ko‘pgina ijodkorlar asarlarida ham kuzatishimiz mumkin. Xususan, Umar Hayyomning «Navro‘znoma» risolasida: «Jamshid... bayram qilishni odatga aylantirdi. Podshohlar va boshqa odamlar ham uni qabul qildilar. Ajam podshohlari shu paytda Oftobni ulug‘lash uchun, shuningdek, har kim ham bu kunni topa olmasligini hisobga olib, uni oldindan belgilab qo‘ydilar. Bayramni joriy etdilar, hamma bu sanaga rioya qilsin degan maqsadda uni barchaga ma‘lum qildilar. Yana “Podshohlarning bir odati bor: yil boshida yaxshilikka fatvo berish, sanalarni belgilash maishat uchun ma‘lum marosimlar o‘tkazishlari zarur. Kimki Navro‘z kuni bayram qilib quvonsa, keyingi Navro‘zgacha xurram bo‘ladi va farog‘atda yashaydi. Podshohlar uchun bu odatni olimlar belgilab berishgan” (Xayyom, 1990: 54) - deb yozadi.

Umar Xayyom *Navro‘znomada* yozishicha: «Ajam podshohlari unib chiqqan arpaning o‘ta yaxshi alomati bor deb hisoblaganlar... Arpa dorilikka ham, yemakka ham yarayveradi...

Yilning yaxshi yoki yomon kelishi ham arpaga qarab aniqlanadi. Agar arpa tik va qalin o'ssa, bu yil serhosil, agar qiyshiq va yakkam-dukkam o'ssa, demak bu yil anchagina kamhosil bo'ladi... Munkaygan chollar arpa bilan fol ochadilar... Farvardin oyida ayrim ayollar qizlariga atab arpani tokning suviga ho'llab ekadilar... Ajam podshohlari har yili Navro'z kunida foydali va qutlug' bo'lgani uchun arpadan bahramand bo'lishni istar edilar». Ajdodlarimiz bayram arafasida yetti xil don (bug'doy, arpa, no'xot, jo'xori, guruch, mosh, loviya)dan navro'zgo'jasini tayyorlab, uni judayam yaxshi niyatlar bilan qo'ni-qo'shni, qarindosh-urug'larga tarqatganlar. Bundan tashqari, dasturxon «S» harfi bilan boshlanadigan yetti xildagi o'simlik (sib– olma, sabzi, sir – sarimsoqpiyoz, sanjed (jiyda), samanu (sumalak), siyohdon – qora danak, sinjid –yovvoyi zaytun kabilar) urug'idan o'stirilgan turli-tuman ko'katlar bilan chiroyli qilib bezatilgan.

Navro'zning etimologik va etnologik xususiyatlari sharq allomalarining asarlarida botiniy va zohiriy jihatdan qay darajada tavsiflanmasin, o'z hayotiyli va davomiyli bilan bir-birini to'ldiradi. Bu masala xususida Beruniy shunday yozgan: «Navro'z... o'tmish zamonlarda... quyoshning saraton burjiga kirish paytiga to'g'ri kelar edi. So'ngra esa, u orqaga surilgach, bahorda keladigan bo'ldi. Endi u butun yil unga xizmat qiladigan bir vaqtda, ya'ni bahor yomg'irining birinchi tomchisi yerga tushishidan toki gullar ochilguncha, daraxtlarning gullashidan toki mevalari yetilguncha, hayvonlarda uyg'onish mavsumi boshlanishidan toki nasli vujudga kelgunicha davom etgan vaqtda keladi». Beruniyning ta'kidicha «Navro'z» olamning boshlanishi va yaratilishiga dalil qilingan. Xoji Ali Hakim Termiziy esa «Navro'znoma» asarida esa «Agar Navro'zi olam dushanba kuni doxil bo'lsa, qamar oyiga taaalluqli bo'lg'ay. Ul yilda to'qliq bo'lg'ay, ne'matlar ko'p bo'lg'ay, yomg'ir ko'p yoqg'ay. G'o'za ekini yaxshi bo'lg'ay. Bug'doy esa shirin bo'lur», deb Navro'zning kelishini hafta kuni xosiyatiga bog'laydi.

Ko'rinadiki, qadimda Navro'z arafasida ajdodlarimiz yetti xil ekinning urug'ini ekanlar va urug'ni unib chiqishiga qarab yilning qanday kelishini bashorat qilganlar. Asrlar o'tishi bilan turli xalqlarda Navro'zni bayram sifatida o'tkazish marosimlari ularning turmush tarziga, mafkurasiga moslashgan. Ayni ko'klam paytida fasllar almashinuvi, tabiatning qayta tirilishi, uni jonlantirish bilan bog'liq marosimlar, o'zida chuqur mazmun ifoda etgan turli o'yin, harakat, qo'shiqlar asosida qiziqarli tomoshalarning o'tkazilishi mohiyatan inson hayotini yanada yaxshilash, tabiat mushkulotlarini yengillashtirish, kelayotgan ko'klam va yangi yilning qanday bo'lishini chamalab ko'rishga xizmat qilgan. Bu ularning kundalik, xo'jalik, ijtimoiy-siyosiy, madaniy va diniy hayotida muhim rol o'ynagan.

Adabiyotimizning ko'hna tarixiga nazar tashlagudek bo'lsak, Navro'z haqidagi birinchi va o'zbek adabiyotidagi ilk g'azalni XIII asrning shoiri Rabg'uziy yozganligiga guvohi bo'lamiz. Rabg'uziy Navro'zning bo'y-bastini botiniy va zohiriy ma'nolarda ifoda etadi.

Kun hamalga kirdi ersa, keldi olam navro'zi,

Kechti bahman zamharir qish, qolmadi qori, buzi.

Kun kelu ming kurki ortib, tirilur o'lmish jahon,

Tong badizlab naqshi birla bezanur bu yer yuzi (Rabg'uziy, 1990: 68).

She'rda Navro'z davrlarosha eng xosiyatli kun sifatida kishilar uchun o'zaro mehr-oqibat, xayru saxovat, yasharish va yangilanish ramzi ekanligi, turmushda uchraydigan gina-qudratlar, achchiq anduhlar ko'ngildan chiqarib yuborilishiga ishora qilingan.

«Navro'z»ning paydo bo'lishi, nishonlanishi, o'ziga xos xususiyatlari haqidagi turlicha talqinni Alisher Navoiy ijodida ham ko'plab uchratamiz. Navoiy «Tarixi mulki ajam» (Ajam podshohlari tarixi) asarida shoh Jamshid haqida so'zlab, u «husnu jamolda dilpazir va fazlu kamolda benazir» bo'lganligini, saltanat taxtiga o'tirgach, «jahon mulkini adl va insof bila tuzgan»ligini maxsus qayd etadi. Jamshidning «g'arib ixtirolari» jumlasida ip va ipak matolarini to'qish «ishlarini arog'a kiyurgani»ni, shahap va qishloqlar barpo etganini,

muhtasham binolar qurdirganini maqtoʻv ruhida bitadi. Shunday imoratlaridan biri «chihil minor» deb atalgan. «Chun bu imorat tugandi, – deb yozgandi Navoiy, – anda azim jamshid (bayram, toʻy-tomosha) qildi. Ul vaqtekim, quyosh nuqtai eʼtiqodli rabiiygʻa (bahorda kecha-kunduz teng boʻlgan kun) tahvil (bir holat – joydan ikkinchi holat – joyga oʻtish) ilib erdi — ul binoda taxt ustida oʻltirib, adolat savti savdosin olamga muntashir (tarqatish, yoyish) qildi va ul kunning otin navroʻz qoʻydi» (Navoiy, 1987).

Koʻrinadiki, Alisher Navoiy navroʻzni, birinchidan, kecha va kunduzning bahorga teng kelish kuni (eʼtiqodli rabiiy) deb ilmiy asoslangan haqiqatni taʼkidlamoqda, ikinchidan, Navroʻzni bayram sifatida tantanavor nishonlash odatining qadim-qadimdan, yarim afsonaviy shoh Jamshid zamonidan boshlanganini qayd etmoqda. Muhimi shundaki, Navoiy Navroʻzdagi toʻy-tomosha, shodlik-xursandlikni odil hukmdor Jamshidning «adolat savtu sadosi olamga muntashir qilgan»ligi bilan uzviy bogʻliq holda koʻradi. Navroʻzga oid qayd-taʼkidlar Navoiy lirikasida ham oʻzining badiiy ifodasini topgan: biz shoirning ulkan sheʼriy merosida navroʻz, navroʻz bayrami, umuman, bahorning fusunkor latofati, hayotbaxsh tarovati haqida koʻplab badiiy lavhalarni uchratamiz. Avvalo, shuni aytib oʻtish kerakki, Navoiy oʻz sheʼriyatida ham ilmiy asoslangan tushunchani —kecha va kunduzning bahorga teng kelish kuni navroʻz deb atalishini bir necha bor misralarga joylab oʻtadi. Shuningdek, shoir maʼshuqaning tashqi goʻzal qiyofasini chizishda ana shu tushunchadan juda oʻrinli foydalanadi. Bu kabi namunalardan birini «Badoye ul-vasat» devonida koʻrishimiz mumkin:

Vasli aro koʻrdum, teng emish boʻyiyu sochi,

Tun-kun teng ekan zohir oʻlur, boʻldi Navroʻz (Navoiy, 1990).

Bunda maʼshuqaning tim qora sochi tunga, kelishgan qomati kunga qiyoslanmoqda, kecha (soch) va kunduz (qomat)ning barobarligi Navroʻz bilan, visol esa navroʻz bayrami bilan tenglashtirilmoqda.

Navoiy umrining soʻnggi yillarida yozilgan:

Ey yuzuna bogʻi nasimida havoyi navroʻz,

Laʼl tojing boʻlub ul bogʻda boʻston afroʻz (Navoiy, 1990), –

bayti bilan boshlanuvchi sheʼrda esa navroʻzning fazilati, uning jonbaxsh, shifobaxsh havosi, navroʻzda kishi ruhining yengil tortib, parvoztanishi oʻziga xos ifodasini topgan. Shunisi alohida diqqatga sazovorki, shoir navroʻzni qutlugʻ, shodiyona kun (bayram) sifatida tilga oladi. Bunday talqin sevgida sadoqat va vafo koʻrsatgan maʼshuqa shaʼniga eng ezgu istaklar bildirilayotgan oshiq tilidan bitilgan misralarda, ayniqsa, yaqqol yuzaga chiqqan. Oshiq vafodor yorning har bir tuni, orzu-umidlar ushaladigan, mushkulini oson qilib, murod-maqsadiga yetkazadigan qutlugʻ qadr kechasi (laylatulqadr), har bir yorugʻ kunining esa hayotbaxsh navroʻzi boʻlishini xohlaydi:

Zulfu ruxsor ila kominga meni yetkursang,

Har tunung qadr oʻlubon har kuning boʻlsun Navroʻz! (Navoiy, 1990)

Navoiy talqinida navroʻz tabiatning uygʻonishi, jonlanishi, yangilanishi va poklanish fasli — bahor hamdir. Bahor esa butun mavjudotga qaytadan hayot bagʻishlovchi, kishilik qalbida mehr-muhabbat, sevgi-sadoqat tuygʻularini uygʻotuvchi, shoirning juda chiroyli taʼbiri bilan aytganda, hatto quruq yogʻochdan ham gullar undiruvchi sehrli va jonbaxsh xususiyatga ega:

Jamoli vasf etarmen hamdamim ul gulʻuz oʻlgʻoch

Quruq shox oʻylakim zohir qilur gullar bahor oʻlgʻoch! (Navoiy, 1990)

Xuddi shu boisdan ham shoirning qator sheʼrlarida hayotsevarlik gʻoyalari va goʻzallik madhi, ezgu orzu-istaklar bayoni va nozik his-tuygʻular ifodasi navroʻz – bahor – gul-ishq tugʻyoni, visol ayyomi tizmasida uygʻun tarzda koʻzga tashlanadi.

Xulosa

Umuman olganda, tarixiy manbalarda, sharq xalqlari adabiyotida, jumladan, Mahmud Qoshg'ariy, Rabg'uziy, Beruniy, Umar Hayyom, Alisher Navoiy singari ulug' allomalarimizning asarlarida Navro'z etimologiyasi etnologiyasi bilan bog'liq ko'plab ma'lumotlar keltirilgan.

Istiqlol yillarida Navro'zi olamning juda ko'p uzvlari qaytadan tiklandi. Bugungi kunlardagi Navro'z bayramining g'oyaviy mazmun-mohiyati, birinchidan, xalqimizning eng yuksak mehnat faoliyati bilan chambarchas bog'lanib kelgan yorqin va o'ta ko'p qirrali ulug' intilishlari, yuksak orzu-umidlariga asoslangani, ikkinchidan, xalqimizning turmush tarzi, milliy ruhi, xalq san'atining ajoyib shakllari va turlari bilan diqqat-e'tiborni o'ziga jalb etishi xalqning ma'naviy turmushini boyitish, anglash hamda xalqimizning go'zal an'alarini asrab-avaylash va saqlashga xolis xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

- Ergashev, A. (2020), *Termalarda Shoqul baxshi mahorati, Monografiya*, Qarshi.
- Firdavsiy, A. (2012), *Shoxnoma (Saylanma)*, Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.
- Jo'rayev, M. (1994), *O'zbek xalq taqvimi va mifologik afsonalar*, Toshkent.
- Jo'rayev, M. (2008), *Navro'z bayrami*, Toshkent.
- Mirzayev, T. (2010), *Navro'z qo'shiqlari*, Toshkent: O'zbekiston.
- Mirzayev, T. vb. (2010), *Navro'z nashidasi*, Toshkent.
- Mirzayev, T., Jo'rayev, M. (1991), *Navro'z*, Toshkent: Fan.
- Navoiy, Alisher (1987-2003), *Mukammal asarlar to'plami*, 20 jild, Toshkent.
- Navoiy, Alisher (1990), *Badoye' ul-vasat*, 5-Jild. Toshkent: Fan nashriyoti.
- Navro'z-boqiy qadriyat. O'zbek, ingliz, rus tillarida. Moziydan sado. 2009. 4-7.
- Rabg'uziy (1990), *Qissai Rabg'uziy*, 2 jild, Toshkent.
- Turdimov, Sh. (2016), *Palakda falak timsoli, Hikmat xazinasi*. Toshkent: O'zbekiston.
- Xayyom, Umar (1990), *Navro'znoma*, Toshkent: Mehnat.

